



XORAZM VOHASIDA ISLOMGACHA BO'LGAN DAVRDA HAYVONLAR BILAN BOG'LIQ URF-ODATLAR, MAROSIMLAR.

Soliyeva Shahnoza

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali Ijtimoiy fanlar kafedrası
o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14039192>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 27-oktabr 2024 yil
Ma'qullandi: 29-oktabr 2024 yil
Nashr qilindi: 30-oktabr 2024 yil

KEY WORDS

*Zardushtiylik, Anaxita, Mitra,
Avesto, Tangrichilik, shomoniylilik,
chorvachilik, qurbonlik,*

ABSTRACT

Xorazm hududida islom dini kirib kelgunga qadar mavjud bo'lgan turli diniy e'tiqodlar, mahalliy urf-odatlar va bugungi kunda ham ulardan saqlanib qolgan ba'zi elementlar tarixiy adabiyot va birlamchi manbalar asosida tahlil etilgan.

Kirish: Markaziy Osiyo xususan, Xorazmda ham islom kirib kelguniga qadar turli xil diniy e'tiqodlar mavjud bo'lgan. Jumladan, buddaviylik, zardushtiylik, nasroniylik kabi yirik dinlar bilan bir qatorda mahalliy dinlar ham mavjud bo'lgan. Milodiy VII asrgacha Markaziy Osiyo xalqlari turlicha dinlarga e'tiqod qilishi bilan ajralib turgan. O'rta Osiyoda asosan eroniy tilda so'zlashuvchi aholi - Zardushtiylik diniga e'tiqod qilgan bo'lsa, janubda istiqomat qiluvchi aholi - buddaviylik diniga sig'ingan. VI asr oxiri - VII asr boshlarida hattoki ba'zi turk xoqonlarining buddaviylikni qabul qilib, ko'plab ibodatxonalar qurdirganini tarixiy manbalar va arxeologik topilmalar orqali bilishimiz mumkin. Barcha dinlarning asosiy tamoyili yaxshilikning yomonlik ustidan g'alabasi, yakka xudolik (xristianlik, yahudiylik), yagona osmon uy-qarorgoh ekanligi, tenglik kabi g'oyalarni ilgari suradi. Ayrim hududlarda dinlar o'zaro chambarchas bog'liq holda, diniy urf-odatlar, marosimlar uyg'unlikda xalq hayotida rivojlana boshladi. Beloglazovning fikricha, bu dinlar bilan bir qatorda, tangrinizm va manixizm kabi mahalliy dinlar ham mavjud bo'lgan[1].

Adabiyotlar tahlili: Islomgacha bo'lgan diniy urf-odatlar ko'plab ilmiy asarlarda yoritilgan, Solomon Reynax hayvonlarga nisbatan e'tiqodiy qarash inson dunyoqarashining asosi va marosimoy hayotining ildizlarini tashkil etishi hamda qadimiy(Antik-asarda qadimgi yunon va rim) diniy tasavvurlarga ta'sir o'tkazganligini ta'kidlaydi[2]

Hayvonot olami bilan bog'liq diniy tasavvurlarni tadqiq etishning birinchi bosqichi ana shunday qarashlarga ega bo'ldi. Ular totemizm (hayvonlarga nisbatan e'tikodiy dunyokarash)ning shakllanishi va uning ibtidoiy asoslariga urg'u bergan holda izlanishlar olib bordilar. Ushbu tadqiqotlar keyingi ilmiy izlanishlar uchun nazariy asos vazifasini utadi. Ibtidoiy diniy qarashlarda hayvonlar bilan bog'lik tasavvurlar fransuz sosiologiya maktabi asoschisi Emil Dyurkgeym tomonidan ham o'rganilgan bo'lib, u o'zining "Diniy hayotning elementar ko'rinishlari" asarida hayvonlar bilan bog'liq ishonch tizimi, asosan, ong bilan bog'liq tushuncha sifatida baholangan. Ular ijobiy va salbiy ishonch ko'rinishlari bulib, unda hayvonot olamiga nisbatan shakllangan e'tiqodiy qarash asosida kurkuv yotishi ilgari surilgan[3]. Emil Dyurkgeymning qarashlariga ko'ra, dunyokarash e'tiqodning asosini tashkil

etadi va marosimiy xayot, urug'chilik hamda nikoh munosabatlari ushbu omildan kelib chiqqan. Turkiston xalqlari tarixida hayvonlar bilan bog'lik tasavvurlar, marosimlar va aholi turmush tarzi xususidagi dastlabki ilmiy tadqiqotlar XX asr boshlarida amalga oshirilgan. Ushbu ilmiy izlanishlarning asosiy maksadi - etnik tarix va diniy qarashlarda qadimiy e'tiqodiy tasavvurlar ildizlari, mifologiya, aholi mashg'ulotlari, turmush tarzi hamda marosimlari kabi masalalarni ochib berishdan iborat edi. Shunga qaramay, hayvonlar bilan bog'liq munosabatlar ularning diqqat-e'tiborini o'ziga tortgan va izlanishlarda ushbu jihat ham yoritib berilgan. M. Andreyev va Ye. Pesherevalar tog'li hudud aholisining sut xo'jaligi hamda u bilan bog'liq marosimlarini tahlil qilib, chorvadan foydalanish va koramol bilan bog'liq ayollar tomonidan o'tkaziluvchi marosimlar to'g'risida ma'lumotlar keltirgan[4]. Ushbu tadqiqotlar shuni tasdiklaydiki, Turkiston xalqlari turmush tarzida hayvonlar muhim rol o'ynaydi va mazkur holat ularning marosimiy hayotida yaqqol ko'zga tashlanadi. XX asr o'rtalariga kelib, ushbu ilmiy muammoga yangicha yondashuv boshlandi va avvalgi izlanishlarga nisbatan amaliy ahamiyati yuzasidan sermahsul bo'ldi. Mazkur izlanishlarda hayvonlar bilan bog'lik kadimiy e'tikodiy tasavvurlar, dunyoqarash va marosimlarga urg'u berildi. Bunday jihatlardan biri hayvon bilan dafn etish bo'lib, ot bilan dafn etilgan qabr xususida V.I. Sprishevskiy alohida maqola e'lon qildi. Mazkur maqolada Mirzo Ulug'bek rasadxonasi yaqinidan topilgan temir davriga oid qabr ochib o'rganilganligi tahlil qilingan[5]. G.P. Snesev tomonidan Xorazm aholisining hayvonot olamiga oid ko'plab materiallari keng jamoatchilikka takdim kilingan. U ushbu tadqiqotida e'tibor berilgan marosimlarni o'tkazishda jonivorlardan foydalanish yuzasidan chuqur ilmiy tahlilni amalga oshirgan. Ayniksa, Xorazm aholisi orasida uy hayvonlariga nisbatan shakllangan qarashlarning tarixiy ildizlarini tanqidiy yoritib beradi. O'z o'rnida shuni ham ta'kidlash joizki, mazkur olim olib borgan keyingi kuzatuvlari orkali o'zbek xalqi dunyokarashida muqaddas jonivorlar saqlanib qolgan, deya ilmiy xulosaga kelgan edi[6]. Ayniqsa, bo'ri xalk orasida alohida ahamiyatga ega jonivor ekanligini misol sifatida keltiradi. Sovet davrida bajarilgan ilmiy tadqiqotlarda, asosan, kadimiy e'tikodiy qarashlar ildizlarini topish, aniqlash, yoritish hamda islom diniga bo'lgan ta'sirini tahlil qilishga harakat qilingan. Ammo, aynan ushbu ilmiy muammo yuzasidan alohida tadqiqotlar sanoqligina bajarilgan. Bundan tashkari, mahalliy aholining diniy qarashlariga xolisona baho berilmagan. Ayniksa, hayvonlarga nisbatan aholining munosabati sabablari to'liq tahlil qilinmagan. Balki, ayrim jihatlarigina tadqiqot diqqat markazida bo'lgan va tavsifiy yoritilgan bulishi mumkin. Bunga misol sifatida G.P. Snesevning tadqiqotlarini keltirish mumkin. Chunki, mazkur olim, asosan, o'zbek xalqi turmush tarzidagi qadimiy diniy odatlar izlariga katta urg'u berib, mukaddas ziyoratgohlardagi hayvonlarga munosabatni ushbu qarashlarning islom diniga ta'sirida qolgan o'tmish sarqiti, deb noto'g'ri baholagan.

Har bir din asrlar davomida insonlarning ongiga chuqur singib boraveradi. Tangrichilik dini - qadimgi turkiy xalqlar, ayniqsa, Oltoy xalqlari orasida keng yoyilgan din hisoblanadi. Turk xoqonligida yashagan xalqlarning diniy e'tiqodi, tasavvurlari ham turlicha bo'lgan, ko'p xudolilik hukm surgan. Bu esa ularda turli xil osmoniy va yer jismlari - quyosh, oy, yer, suv, hayvonlar va boshqa narsalarga sig'inishni keltirib chiqargan. Osmon xudosi Tangri turk qavmlarining eng oliy xudosi hisoblangan. Ushbu dinning kelib chiqishi miloddan avvalgi III ming yillikka Shumer davlatiga borib taqaladi. Bu dinning ta'limotiga ko'ra, Buyuk osmon ruhi doimiy makonida ya'ni osmonda yashaydi. O'rta Osiyo davlatlarida shakllangan kosmologik qarashlar, quyosh sistemasining harakati - Quyosh, Oy, sayyoralar, kometalar va boshqalar diniy qarashlarning shakllanishiga juda katta turtki bo'lgan. Dastavval ikki tangri mavjud bo'lib, ulardan birinchisi Tangri Umay. U Sumera tog'ining tepasida yashagan. Uning etagidan keyinchalik Ona O't xudo dunyoga keladi [7]. Biroq VIII asrda islom dinining kirib kelishi natijasida ushbu dinlar o'z ta'sirini deyarli yo'qotdi.

Xulosa: Diniy urf-odat, an'ana va marosimlar vaqt o'tishi bilan milliy an'ana va marosimlarga aylanib borishi transformatsiyalashuv deb ataladi. Diniy marosimlarni

bajarishda kohinlar, keyinchalik ruhoniylar boshchilik qilgan. Ular o'z marosimlarini asta-sekin muayyan dinning talabi, xususiyati, aqidasi va ehtiyojiga moslaganlar.

Yakkaxudolik dini bo'lmish islom dini ko'pxudolikka barham berdi, butun O'rta Osiyo mintaqasi islom dini atrofida birlashdi. Yuqorida aytib o'tilganidek, aholi orasida saqlanib qolgan ba'zi urf-odat va marosimlar transformatsiyalashuv natijasida diniy ahamiyat kasb etmagani holda mahalliy an'ana va marosimlar sifatida saqlanib kelmoqda.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Beloglazov A.V. Islom dinining Markaziy Osiyodagi siyosiy jarayonlarga ta'siri.-Qozon: Qozon. Universitet, 2013 yil
- 2.Reinach S. Cults, Myths and Religion. – London: David Nutt, 1912, -8 p.
3. Durkheim E. The Elementary Forms of the Religious Life. New York: The Free Press, 1965. P. 337-338.
4. Andreev M.S. Tojikistonda. 1925-yilda Tojikistondagi etnografik ekspeditsiya faoliyati haqida qisqacha hisobot. Toshkent, 1927. Nashr. 1. 29 b.; Peschereva E. Tog'li tojiklarning sut chorvachiligi va u bilan bog'liq ba'zi odatlar.... 42-59 b.
5. Sprishevskiy V.I. Ot bilan dafn etilgan, milodiy 1-ming yillik o'rtalari. Ulug'bek rasadxonasi yaqinida topilgan / O'zbekiston xalqlari tarixi muzeyi materiallari. T. 1. Toshkent, 1951. - B. 33-426. Снесарев Г.П. Люди и звери // СЭ. 1972. №1. С. 167-176.
7. Sultanova R. From Shamanism to Sufism Women/ Islam and Culture in Central Asia. L.: "I.B.Taurus". 2011.
8. Gulrux Akmal qizi Qamariddinova. Buxoroda islomgacha bo'lgan diniy e'tiqodlar . Maqola - 2b
- 9.Axrorbek Azamjonovich Azizov . O'zbek madaniyatida hayvonot olami bilan bog'liq tasavvurlar(Farg'ona misolida).Avt.ref.
- 10.Абидова, З. Қ. (2018). Хоразм воҳаси зиёратгоҳлари ва қадамжолари (тарихий-этнологик тадқиқот). Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) даражасини олиш учун ёзилган диссертация.
11. Kadirberganovna, A. Z. (2023). Myths and legends about the saints of Khorezm. EPRA International Journal of Multidisciplinary Research (IJMR), 9(2), 50-52